Yashil moliyalashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli: imkoniyatlar va xavflar tahlili	765
Isoqulova Munisxon Abdurasul qizi	
Критерии экологичности бренда: как измерить «зеленый» имидж?	769
Носирова Чарос	
Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish	775
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
«O'ztransgaz» AJ faoliyatini 2024–2027 yillarga prognozlashtirishda ekonometrik modellar asosida tahlil	784
Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li, Murodov Sardor Nurali o'g'li	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar.....	791
Mahmudov Otamurod Hoshimovich, Murtazova Sh.N.	
Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	795
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	
O'zbekiston chakana savdosi tizimi va uning rivojlanishi.....	806
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni va maqsadi	812
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Investitsion faoliyatni amalga oshirishning xorij tajribasi va mamlakatimizda foydalanish istiqbollari.....	816
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni.....	822
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	829
Бегалиев Файзали Умаралиевич	
Sog'lomlashtirish turizmida ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning sintezi	832
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	



Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari.....	835
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Обзор по теме Современные системы управления возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления).....	841
Алиев Абдор Мураткулович	
O'zbekistonda turizm va servis sohasida davlat- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbas Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



GLOBAL TA'LIM MAKONIDA MILLIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sanaqulov Sardor Istamqulovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrası assistenti
Orcid:0009-0005-5425-529X

Annotatsiya: Ushbu maqolada global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim muhitining jadal rivojlanishi sharoitida milliy tarbiyaning tutgan o'rnini va uning dolzarbligi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada, xususan, ta'lim va tarbiya jarayonida yosh avlodning milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning milliy an'ana va qadriyatlar asosida shakllanishi, shuningdek, madaniy merosni asrab-avaylash zarurati konseptual yondashuvlar asosida asoslab beriladi. Milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik hissinini mustahkamlash va milliy g'ururni shakllantirish jarayonlarida tarbiyaning uzviy tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar: global ta'lim, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, madaniy meros, milliy o'zlikni anglash, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, milliy g'urur.

Abstract: This article examines the prospects for developing national education within the context of the global educational space. It highlights the significance and relevance of national upbringing amid the rapidly evolving modern educational environment. In particular, the article analyzes the youth's attitude toward national values in the process of education and upbringing, the formation of moral and spiritual development based on national traditions, and the importance of preserving cultural heritage. The study emphasizes the crucial role of education as an integral part of shaping national identity, fostering patriotism, and cultivating a sense of national pride.

Key words: global education, national upbringing, national values, moral education, cultural heritage, national identity, youth education, patriotism, national pride.

Аннотация: В статье рассматриваются перспективы развития национального воспитания в условиях глобального образовательного пространства. Освещается актуальность и значение национального воспитания в быстро развивающейся современной образовательной среде. В частности, анализируются отношение молодёжи к национальным ценностям в процессе обучения и воспитания, формирование нравственно-духовного воспитания на основе национальных традиций, а также необходимость сохранения культурного наследия. Особое внимание уделяется роли воспитания как неотъемлемой части формирования национального самосознания, патриотизма и чувства национальной гордости.

Ключевые слова: глобальное образование, национальное воспитание, национальные ценности, нравственное воспитание, культурное наследие, национальная идентичность, воспитание молодёжи, патриотизм, национальная гордость.

KIRISH

Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari har bir sohada jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Globallashuv — bu dunyo mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda axborot aloqalarining tobora kengayib borish jarayonidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi, faoliyatning barcha sohalarida raqobat muhitining kuchayib borayotganligi zamonaviy davrning muhim xususiyatiga aylangan. Bunday sharoitda bilimli, intellektual salohiyatga ega, yuqori ko'nikma va malakani egallagan avlodni tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va taraqqiyoti mehnat bozoriga kirib kelayotgan malakali kadrlarga bevosita bog'liqdir. Bu kadrlar esa ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida kamol topadi. Ta'limga berilgan e'tibor, ayniqsa, uning sifatli tashkil etilishi — kelajakda sifatli kadrlarning shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Fan va texnika sohasidagi globallashuv, liberallashuv hamda o'zgarishlar davlatlar uchun nafaqat savdo, innovatsiya va taraqqiyot yo'lida yangi imkoniyatlar eshigini ochmogda, balki ko'plab hollarda iqtisodiy



tengsizlikni kuchaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonlar axborot olish va uni yetkazish mexanizmlarini, jamoatchilik fikrini shakllantirish vositalarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Natijada, raqobat muhitining kuchayishi bilan hayot biz oldimizga yangi-yangi talab va vazifalarni qo'ymoqda [1, b. 291–294].

Mazkur globallashuv jarayonlari, tabiiyki, jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Jumladan, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining kengayishi, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, ularning ta'limdagi yutuqlari va dasturlari chuqur tahlil qilinib, istiqbolli hamkorlik asosida O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, onlayn darslar, raqamli platformalar orqali masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Xalqaro ta'lim standartlariga mos tarzda ta'lim sifati va natijadorligini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqilmoqda hamda bu mezonlar global ta'lim tizimi bilan taqqoslash imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa o'zaro tajriba almashinuvi va kreativ fikrlash salohiyatining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy o'zgarishlardan samarali foydalanish uchun milliy ta'lim tizimi va global ta'lim makoni o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir shaxsning o'zini anglashi — uning tarixi, ajdodlarining boy ma'naviy merosi, urf-odatlar va an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy g'urur va iftixor hissi esa barkamol avlodni tarbiyalashning zaruriy shartidir.

Demak, insonda milliy g'urur mavjud bo'lishi — bu, avvalo, uning yashab turgan hududi, tarixiy ildizlari, madaniyati, urf-odatlar hamda ma'naviy merosini chuqur anglagan holda, o'z millatiga mansubligi bilan faxrlanish hissining mavjudligidir [2, b. 333].

Milliylik har bir xalqning ertangi kuni va istiqbolini belgilovchi muhim omildir. Milliy ong va tafakkur tarbiyasi esa aynan ta'lim maskanlarida takomillashadi. Zero, chuqur bilimga ega, vatanparvar, tashabbuskor va fidoyi yoshlarni tarbiyalash har qanday millatning eng asosiy maqsadidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Fan inson tafakkurining yuksak mahsulidir. U zamonaviy davrda global muammolarni to'g'ri anglash, ularni yechish yo'llarini topish, xavfli jarayonlardan saqlanish, borliqning ichki qonuniyatlarini anglab yetish va insoniyatning ongli faoliyatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish uchun zaruriy vositadir. Biroq, sayyoramiz hayotidagi hozirgi sharoitlar fan kashf etgan bilimlar amaliyotga axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilmagan tatbiq etilganda, ularning salbiy oqibatlari ijobiy natijalaridan ustun bo'lishi mumkinligini isbotlamoqda [3, b. 45].

Milliylikning barkamol sub'ektini tarbiyalash masalasini tadqiq etar ekanmiz, milliylikning nafaqat madaniy-ijtimoiy, balki fiziologik asoslari ham mavjudligini ta'kidlash lozim. Fiziologlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida aniqlanishicha, inson o'z millatiga xos tilda so'zlaganida, uning tashqi qiyofasi, yuz ifodasi mazkur millat kishilariga xos xususiyatlarga moslashadi. Chunki boshqa tilda fikr bildirar ekan, inson o'sha millatga xos imo-ishoralar va xatti-harakatlardan foydalanishga majbur bo'ladi. Shuning uchun, inson avvalo ona tilida va o'z hududiga mos axborotni miyaga joylashtirgan taqdirdagina, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishga qodir bo'ladi.

Demak, faqatgina o'z millatiga xos bo'lgan tarbiyaviy tizim orqali millatning boshqa xalqlardan farqlanishi, ichki yaxlitligi va benazirligi ta'minlanadi. Aksincha, agar milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa yoki stixiyali tarzda amalga oshirilsa, bu xalqning milliy o'zligini anglash darajasining pasayishiga, milliy g'urur, madaniyat va vatanparvarlik kabi qadriyatlarining zaiflashishiga olib keladi [4, b. 13–14].

Bugungi dunyo rang-barang milliy qiyofasi bilan ajralib turadi. Bu holat insonlarning milliy o'zligini anglash jarayoni bilan uyg'un tarzda takomillashib bormoqda. Insonlarning aql-zakovati ortib, moddiy sharoitlari yaxshilangani sayin, ularning milliy o'zligini anglashga bo'lgan intilishi ham kuchayib boradi. Albatta, bu yerda milliy o'zlikni anglashni to'liq moddiy ehtiyojlar bilan bog'lash nazarda tutilmayapti. Biroq, ayni ehtiyojlarning ushbu jarayondagi muhim o'rin egallashi inkor etilmaydi. Chunki moddiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan har qanday harakat zamirida insonning yashash va faoliyat yuritish maqsadi yotadi. Agar ushbu faoliyatlar ma'naviyat bilan uyg'unlashmasa, insonning boshqa tirik mavjudotlardan farqi qolmaydi. Shu bois, moddiy ehtiyojlar qanchalik muhim bo'lmasin, ular faqatgina ma'naviyat bilan uyg'unlashgan holatda insoniylik qiyofasini belgilab beradi [5, b. 60].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish omillari chuqur tahlil qilindi. Tahliliy yondashuv asosida zamonaviy ta'limning mazmuni, shakllari va uslublari bilan milliy tarbiya tizimining o'ziga xos jihatlari solishtirildi. Milliy ta'lim tizimi va xalqaro miqyosdagi ta'lim siyosati, globallashuv jarayonlari va ularning ta'limga ta'siri ilmiy va statistik manbalar asosida qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, bu omillar ta'lim sifatiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlar aniqlanib, ularning sabab-oqibat aloqalari ochib berildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy insoniyat global jarayonlarning keskin ta'siri ostida shakllanayotgan, har lahzada turmush tarzimizni o'zgartirayotgan murakkab va shiddatli davrda yashamoqda. Hayotimiz barcha jabhalarida tubdan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, intellektual platformalar va ilm-fan yutuqlari taraqqiyotning ajralmas omiliga aylangan. Ushbu innovatsion texnologiyalar — ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat mahsuli sifatida — insoniyatning turmush darajasini yuksaltirishga, farovon hayotni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash har qanday davlatning ustuvor vazifasidir. Bu jarayon orqali yoshlarda milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy fazilatlar shakllanadi, ularning mafkuraviy qarashlari mustahkamlanadi va barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga sharoit yaratiladi. Shaxsning ijtimoiy mavqeini aniqlashda, ijtimoiy-siyosiy tizimni isloh qilishda, barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy nazoratni kuchaytirishda ta'lim va tarbiya hal qiluvchi o'rin tutadi [6, b. 31].

1-jadval. Milliy tarbiya yo'nalishlari tahlili.

Asosiy Yo'nalishlar	Tahliliy Yondashuv
Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar	Zamonaviy texnologiyalar orqali ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish
Yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash	O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish, shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish
Milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiya	Milliy urf-odatlar asosida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash
Mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash	Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, g'oyaviy xurujlarga qarshi turish
Tarixiy xotira va madaniy merosni asrash	Madaniy merosni asrab-avaylash orqali milliy identitetni mustahkamlash va yangi avlodga yetkazish

Yuqoridagi "Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha tahliliy yondashuvlar" nomli jadvalda milliy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishga doir asosiy yo'nalishlar va ularni amaliy jihatdan tahlil qilishga oid yondashuvlar tizimli tarzda bayon etilgan. Jadvalda har bir yo'nalish zamonaviy ta'lim sharoitida qanday ahamiyat kasb etishi, shuningdek, ularning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni yoritilgan.

Xususan, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar bugungi ta'lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etish va o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash yo'nalishi esa ularning ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytirish, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy tarbiya orqali yoshlarning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy ongini shakllantirish ko'zda tutilgan. Jadvalda keltirilgan boshqa yo'nalishlar — mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash hamda tarixiy xotira va madaniy merosni asrash kabi jihatlar yoshlar ongiga milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda, ularni ma'naviy yuksaltirishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlat o'zining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini, milliy qadriyatlarini asrab-avaylagan holda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga intilmoqda. Chunki global axborot maydoni va ommaviy madaniyat ta'sirida ayrim yoshlar ongida begonalashuv, egotsentrizm, yengil hayotga intilish va madaniyatsizlik kabi salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ushbu holat milliy tarbiyani zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirgan holda, chuqur va tizimli ravishda olib borishni taqozo etadi.

Milliy tarbiyani global ta'lim makonida rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu yo'nalishdagi samaradorlikni ta'minlash uchun, eng avvalo, milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar uyg'unligini ta'lim tizimida qaror toptirish zarur. Tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini yosh avlod ongi va qalbiga chuqur singdirish orqali, biz mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga ega, yetuk avlodni shakllantirish yo'lida izchil harakat qilishimiz lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi davrda ta'lim tizimi dunyo miqyosida izchil integratsiyalashib bormoqda. Yuqori ko'rsatkichlar bilan taraqqiy etayotgan mamlakatlarning ta'lim tizimi, ilg'or tajribalari chuqur o'rganilib, ularni amaliyotga joriy etish tendensiyasi kuchaymoqda. Ushbu jarayonda har bir millat o'z milliy tarbiya tamoyillari va an'analarini saqlab qolish, ularni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish hamda bu yo'lida o'qituvchi-pedagoglarning, ota-



onalarning va butun jamiyatning mas'uliyati, tashabbuskorligi hamda o'zaro uzviy hamkorligi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, xalqning madaniy o'zligini — ya'ni til, diniy e'tiqodlar, urf-odatlar, tarixiy xotira, san'at va estetik qarashlar, qadriyatlar tizimini milliylikka asoslangan holda asrash va zamonaviy ta'lim-tarbiya talablariga uyg'unlashtirish orqali tizimli islohotlarni amalga oshirish dolzarb vazifadir. Bu esa jamiyatda ma'naviy barkamollik, intellektual rivojlanish va vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — T.: O'zbekiston, 2022-y. — B. 291–294.
2. Ziyomuhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. — T.: Sano-standart nashriyoti, 2011-y. — B. 333.
3. Qahhorova Sh. Globallashuv sharoitida inson hayoti ma'nosi. — T.: 2009-y. — B. 45.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. — T.: Ma'naviyat, 2007-y. — B. 13–14.
5. Otamuratov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). — T.: Yangi asr avlodi, 2008-y. — B. 60.
6. Ro'ziyeva R. Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish. — T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2011-y. — B. 31.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
